

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOJXONA QO'MITASINING BOJXONA INSTITUTI

MUQIMOV ASRORJON RASULOVICH

**DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISHDA BOJXONA
TO'LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Muqimov Asrorjon Rasulovich

Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to‘lovlarini undirishni
takomillashtirish 3

Мукимов Асроржон Расулович

Совершенствование взимания таможенных платежей в целях увеличения
доходов государственного бюджета 29

Mukimov Asrorjon Rasulovich

Improving the collection of customs payments to increase state budget
revenues 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BOJXONA QO'MITASINING BOJXONA INSTITUTI

MUQIMOV ASRORJON RASULOVICH

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISHDA BOJXONA
TO'LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2025.2.PhD/Iqt3103 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Bojxona qo'mitasining Bojxona institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pardayev Tulkin Nasirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.1.23.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "3" 09 soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2070 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "14" 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil "14" 08 da 61 - raqamli reyestr bayonnomasi).




S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarining iqtisodiy mohiyati qator jihatlarda namoyon bo'ladi. Xususan, ular davlat budjetining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, bojxona to'lovlari himoya vositasi vazifasini bajaradi va mahalliy ishlab chiqarishning xorijiy raqobat oldida barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tashqi savdo operatsiyalarini tartibda va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Aksariyat mamlakatlar uchun, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona to'lovlari jami davlat daromadlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Jumladan, "Davlat budjeti daromadlari tarkibida bojxona to'lovlarining salmog'i Yel davlatlarida 14-15 foiz, Rossiya Federatsiyasida va MDH mamlakatlarida 21-23 foiz, Xitoyda 3 foizni tashkil etmoqda¹. Bojxona ma'murchiligining takomillashuvi to'lovlarning to'liq yig'ilishiga erishish bilan birga, legal savdoni rag'batlantirib, tranzaksion xarajatlar hamda korrupsiya xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, bojxona qiymati va tovar tasnifidagi xatolarni qisqartirish, imtiyozlardan maqsadli foydalanish va frod sxemalarini barvaqt aniqlash budjet yo'qotishlarini cheklab, daromadlar prognoz aniqligini oshiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish, mazkur sohaga raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy etish, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda inson omilini qisqartirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Jahonda davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tashqi savdo o'sishi va raqamli logistika sharoitida bojxona ma'murchiligini modernizatsiya qilish, tushumlar barqarorligini ta'minlash hamda yashirin aylanma va kontrabanda risklarini pasaytirishga qaratilgan holda izchil olib borilmoqda. Mazkur muammo bo'yicha ustuvor tadqiqot yo'nalishlari qatorida riskka asoslangan bojxona nazorati va post-audit orqali to'lovlarni to'liq undirish samaradorligini oshirish, elektron deklaratsiya, "yagona darcha", ma'lumotlarni "zanjir" ko'rinishida saqlaydigan taqsimlangan reyestr (blokcheyn) texnologiyasi, tovarning kelib chiqishi va harakatini izlab borish va Big Data analitikasi orqali to'lovlarni hisoblashda aniqlik va shaffoflikni kuchaytirish, bojxona qiymatini aniqlash, transfert narxlash va tovar tasnifida xatolarni kamaytirish metodologiyalari, tarif va bojxona imtiyozlarini optimallashtirish hamda ularning budjet tushumlari va savdo oqimlariga ta'sirini ekonometrik baholash, korrupsiya va frod risklarini kamaytirish uchun institutsional islohotlar, KPI asosida xizmat samaradorligini baholash va raqamli izlar orqali nazorat mexanizmlarini takomillashtirish kabilarni ta'kidlab o'tish mumkin.

¹ https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs/eu-customs-union-facts-and-figures/customs-duties-source-revenue_en; Russian budget revenues up 26% in 2024 to over \$400 bln — Accounts Chamber. https://tass.com/economy/1922521?utm_source=twitter&utm_medium=social, <https://www.themoscowtimes.com/2026/01/15/russias-customs-revenues-fall-20-in-2025-deepening-budget-shortfall-a91692>; China – Customs and Other Import Duties (% Of Tax Revenue) <https://tradingeconomics.com/china/customs-and-other-import-duties-percent-of-tax-revenue-wb-data.html>.

O'zbekistonda davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar, avvalo, bojxona ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirish, "Yagona darcha" orqali ma'lumot va ruxsatnomalar aylanmasini markazlashtirish, riskka asoslangan nazorat va post-audit mexanizmlarini kengaytirish hamda bojxona qiymatini aniqlashda subyektivlikni kamaytirishga qaratilgan. Xususan, islohotlar doirasida "bojxona xizmatlari to'liq raqamlashtirilgan holda, "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni 40 taga yetkaziladi"² degan maqsad belgilanib, bu to'lovlarni hisoblash va undirishda shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, 2025-yil 1-oktyabrdan tashqi savdo bo'yicha sertifikat, xulosa va ruxsat beruvchi hujjatlarni "Yagona darcha" orqali rasmiylashtirish talabi joriy etilgani to'lovlarni to'liq undirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning yagona manbada yig'ilishini ta'minlaydi³. Amalda esa "Yagona darcha" tizimiga vakolatli organlar ma'lumot kiritmagan bo'lsa elektron deklaratsiya qabul qilinmasligi kabi qoidalar orqali institutlararo integratsiya kuchaytirilmoqda⁴. Bundan ko'rinadiki, ushbu chora-tadbirlarning budget tushumlari, biznes xarajatlari va risklar pasayishiga ta'sirini empirik baholash hamda bojxona to'lovlarini undirishda raqamli-tashkiliy yechimlarni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2025-yil 25-martdagi PF-57-son "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son "O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyul, 605-son "Tovarlarni bojxonada deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2022-yil 27-aprel, PF-122-son. - <https://lex.uz/acts/-5998615>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.03.2025 yildagi PQ-122-son. Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. - <https://lex.uz/uz/docs/-7452043>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Tovarlarni bojxonada deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida. 2018-yil 31-iyul, 605-son. - <https://lex.uz/acts/-3844549>

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Davlat budjetining daromadlar manbai boʻlgan bojxona toʻlovlari va soliqlarning uslubiy asoslari, ularning kelib chiqishi hamda takomillashib borishining nazariy jihatlar va metodologik asoslari xorijlik iqtisodchi olimlardan I.V.Gomon, M.V.Vasilyeva, Ye.V.Chipurenko, A.N.Kozirin, M.Jamkeeva, V.V.Popov, V.G.Svinuxov va boshqalarning asarlarida oʻz aksini topgan⁵.

Mahalliy iqtisodchi olimlar S.A.Alimbayev, S.Aripov, Sh.N.Boymuradov, R.A.Turapov, T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov, Sh.Oʻ.Azizov, Z.X.Makkamov, O.A.Sarmanov va boshqalarning asarlarida bojxona toʻlovlari mohiyati, ularning tahlili va auditi, ularni hisoblash, undirish va davlat budjetiga oʻtkazish, shuningdek bojxona qiymatini aniqlashning uslubiy va normativ-huquqiy jihatlar keng yoritilgan⁶. Shuningdek, yana bir guruh olimlarimiz H.P.Abulkasimov, A.A.Mamatov, S.A.Mamatov, L.N.Saidgaziyeva, B.O.Tursunov, Sh.I.Omonova, L.N.Xalikova, B.A.Iskandarov, M.N.Umarova, B.I.Ismoilov va boshqalarning ilmiy ishlarida iqtisodiy xavfsizlik, fiskal faoliyat va soliq toʻlovchilar faoliyatini tartibga solishning nazariy masalalari va tahlilining metodologik asoslari qayd etilgan⁷.

⁵ Жамкеева М. Мировой опыт таможенно-тарифного регулирования внешнеэкономической деятельности // Актуальные проблемы экономики, 2012, №9(135). – С.303., Козырин А. Таможенная пошлина / Москва. 1998. С.299., Попов В.В. Формирование методологии многоуровневого экономического анализа таможенных платежей. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Оренбург — 2023., Гомон И.В., Непарко М.В., Решетова Н.И. Таможенные платежи как основа формирования федерального бюджета. Экономика и предпринимательство. 2017;(9–3):37–40., Василева М.В. Учётно-информационная база проведения налогового анализа как этапа налогового планирования на микроуровне / М.В. Василева // Управленческий учет. — 2010. — №1. — С. 18.; Чипуренко Е.В. «Методология налогового анализа и отсценки влияния системы налогообложения на деятельность коммерческих организаций». Автореферат дисс.д.э.н. -М.: 2011. 16-17 с.; Козырин А. Н. Государственно правовой механизм таможенной политики зарубежных стран, Моск. гос. ин-т междунар. отношений.м. : МГИМО, 1994.; Свинухова В.Г. Таможенное дело.М.2005 г. С.251.

⁶ Alimbayev S.A. Oʻzbekiston Respublikasi bojxona hududida tovar ayirboshlashning tashkiliy huquqiy muammolari. yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: — 2003. -181 b.;

Aripov S. Tashqi savdoni bojxona toʻlovlari orqali tartibga solishni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2009. -24 b.; Boymuradov Sh.N. Bojxona sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy huquqiy shakllari. yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. -161 b.; Turapov R.A. Oʻzbekiston Respublikasi bojxona faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2006. -283 b.; 11.; Pardayev T.N., Shadmankulov A.A., Makkamov Z.X. Bojxona toʻlovlari. // Darslik — Toshkent: Bojxona instituti, 2021-yil, 385 bet.; Azizov Sh.Oʻ. Bojxona auditi metodologiyasini takomillashtirish: fan doktori (DSc) ilmiy darajasi boʻyicha dis.avtoref. <http://library.ziynet.uz/ru/book/101923>; Makkamov Z.X. Bojxona toʻlovlari auditini takomillashtirish istiqbollari: iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. –T.:2022. Sarmanov O.A. Oʻzbekistonda bojxona toʻlovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish: i fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. –T.:2022.

⁷ Abulkasimov H.P., Mamatov A.A., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.S. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. , -Toshkent. 2022.-732 b., Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2019. – 240 b., Omonova Sh.I. Davlat fiskal siyosatining nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2020. – 198 b., Khalikova L.N. Iqtisodiy xavfsizlik va fiskal faoliyatning oʻzaro bogʻliqligi. Ilmiy maqolalar toʻplami. – Toshkent, 2021. – 176 b., Iskandarov B.A. Fiskal siyosat va soliq toʻlovchilar faoliyatini tartibga solish. – Toshkent, 2020. – 215 b., Umarova M.N. Iqtisodiy xavfsizlik

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Bojxona qo'mitasi Bojxona institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning obyektiv zaruratini ochib berish;

bojxona to'lovlari undirishning normativ-huquqiy asoslarini o'rganish;

davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

bojxona to'lovlari undirishning amaldagi holati va undagi muammolarni tahlil qilish;

bojxona to'lovlarini undirish mexanizmida Xalqaro standartlarni implementatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish;

bojxona to'lovlari yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'llarini kengaytirish;

bojxona to'lovlari va unga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish;

davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining fiskal faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, guruhlash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-siyosiy kuzatish, omilli tahlil, ekonometrik tahlil, korrelyatsion tahlil, regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan boj tarifidan tashqari 5-20 foiz chegarasida tabaqalashtirilgan miqdorlarda qo'shimcha bojxona bojini undirish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlari va bojxona rasmiylashtiruvi uchun boshqa turdagi to'lovlarni yagona g'azna hisobvarag'ini ochish orqali respublikaning istalgan hududidan amalga oshirish imkonini yaratish taklifi asoslangan;

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini aniqlashda bojxona organlari tomonidan dastlabki qarorni berish bo'yicha taklifi asoslangan;

O'zbekistonda davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ko'p omillik ekonometrik tahlillari natijasida bojxona to'lovlari tushumining 2030-yilga qadar o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“bojxona to'lovlari” tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilib, uning iqtisodiy mohiyati va bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillar turkumlarga ajratilgan va ular ekonometrik tahlil etilgan hamda bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri o'rganilib, bojxona to'lovlarining miqdorini oqilona oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar berilgan;

soliqqa tortiladigan import hajmining o'zgarishi bojxona to'lovlari summasiga ta'sir qilishi, soliqqa tortiladigan import hajmining oshishi esa davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining oshishiga olib kelishi, jumladan, soliqqa tortiladigan import hajmi o'rtacha bir mln AQSH dollariga oshishi davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari o'rtacha 1,554 mlrd so'mga oshishiga ta'sir qilishi asoslangan;

import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasining o'zgarishi bojxona to'lovlari summasiga ta'sir qilishi, import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasining oshishi esa davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining kamayishiga olib kelishi, jumladan, import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi o'rtacha bir foizga oshishi hisoblangan bojxona to'lovlarining o'rtacha 256,1 mlrd so'mga kamayishiga ta'sir qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, xalqaro standartlar va ilg'or xorij tajribasini o'rganish, umumlashtirish natijalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish borasida yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish jarayonida hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda boj tarifi siyosatini ishlab chiqish, bojxona to'lovlari stavkalarini optimallashtirish, shuningdek, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy o'quv yurtlarida “Bojxona to'lovlari”, “Budjet”, “Bojxona ishi”, “Boj-tarif siyosatini boshqarish” kabi fanlarning o'quv

dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan boj tarifidan tashqari 5-20 foiz chegarasida tabaqalashtirilgan miqdorlarda qo'shimcha bojxona bojini undirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" O'RQ-1097-son Qonunining 2-moddasining 2-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2026-yil 16-martdagi 05/8-4103-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fiskal yuklamani oshirish emas, balki shaffof, prognoz qilinadigan va adolatli tashqi iqtisodiy tartibga solish tizimini yaratishga erishilgan;

tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlari va bojxona rasmiylashtiruvi uchun boshqa turdagi to'lovlarni yagona g'azna hisobvarag'ini ochish orqali respublikaning istalgan hududidan amalga oshirish imkonini yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 25-martdagi PF-57-son Farmonining 5-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2026-yil 16-martdagi 05/8-4103-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlari uchun qulay, shaffof va tezkor to'lov muhitini yaratish bilan birga, davlat budjeti daromadlarini samarali boshqarish va nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish hamda davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlashga erishilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini aniqlashda bojxona organlari tomonidan dastlabki qarorni berish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 1-iyulda 3634-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Tovarlariga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining buyrug'ida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2026-yil 16-martdagi 05/8-4103-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishdan oldin bojxona imtiyozlari bo'yicha aniq va rasmiy ma'lumot olish imkoniyati yaratilgan. Bu orqali turli noaniqliklarni kamaytirish, ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldini olish hamda bojxona organlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni kamaytirishga erishilgan;

O'zbekistonda davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ko'p omillik ekonometrik tahlillari natijasida bojxona to'lovlari tushumining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari Bojxona qo'mitasi tomonidan davlat budjetining tushumlari prognozi shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2026-yil 16-martdagi 05/8-4103-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona to'lovlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish tartib-taomillari takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning nazariy va normativ-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning obyektiv zarurati, bojxona to'lovlari undirishning normativ-huquqiy asoslari, davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.


Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirish tizimi muhim o'rin tutib, uni samarali tashkil etish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda bu jarayonda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro prinsip va normalarni inobatga olgan holda takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda davlat budjetining daromadlar qismini shakllantirishda bojxona to'lovlari 20-25 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkich so'nggi 5 yil ichida barqaror ravishda o'sib kelayotgani mazkur soha ahamiyatining qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. 2016-2025-yillarda bojxona to'lovlari tushumining davlat budjeti daromadlar qismidagi ulushi (foizda)⁸

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 289-290-moddalariga muvofiq, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va boshqa bojxona tartib-taomillarida bojxona organlari tomonidan bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona yig'implari kabi bojxona to'lovlari undiriladi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda bojxona to'lovlari turlari⁹

Bojxona to'lovlarining mohiyati va uni qo'llash xususiyatlari bo'yicha bir qancha olimlarning qarashlari mavjud (1-jadval).

⁸ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁹ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Bojxona to'lovlari tushunchasining mazmuni xususidagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlar¹⁰

Mualliflar	Mazmuni
Pardayev T.N.	Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun Davlat budgetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to'lovlar bojxona to'lovlari deyiladi ¹¹ .
Aripov S.	Bojxona qonunchiligida boj tarifi va boshqa bojxona to'lovlarini qo'llash tizimi, shu jumladan, tovarlarning bojxona qiymatini to'g'ri aniqlashni takomillashtirish hisobiga har bir bojxona faoliyatidan tushayotgan to'lovlar samaradorligini oshirishga olib keladi ¹² .
Makkamov Z.X.	O'zbekistonda bojxona nazoratini samarali amalga oshirish maqsadida bojxona auditini "kameral" hamda "sayyor" shakllarda amalga oshirish hamda bojxona to'lovlari auditini takomillashtirish yo'nalishlari sifati bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarni nazorat qilish va bojxona qiymatini to'g'ri aniqlanganligini tekshirish belgilab olingan ¹³ .
Sarmanov O.A.	Bojxona to'lovlari tahlili deganda – bojxona to'lovlarining umumiy hajmi, turlari, to'lash muddatlari va stavkalariga amal qilinishi, bojxona to'lovlari miqdorini o'zgarishi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni kompleks o'rganish tushuniladi ¹⁴ .
Slepov D.A., Chuykov Ye.V.	Bojxona to'lovlari bojxona organlari xodimlari tomonidan hisoblanadigan va federal budget daromadlar qismini to'ldiruvchi manba hisoblanadi ¹⁵ .
Knodel L.V.	"bojxona to'lovlari – xalqaro savdo tovarlariga qo'llaniladigan bilvosita soliq bo'lib, iqtisodiy mazmunda iste'mol solig'i sifatida ham qaraladi" ¹⁶ .
Pepelasis A.A.	"bojxona to'lovlari – davlat tomonidan tovarlar milliy chegaradan o'tganda undiriladigan soliqdir" ¹⁷ .
Bragg S.	"Bojxona to'lovi – import yoki eksport qilinadigan tovarlarga qo'yiladigan soliq bo'lib, davlat daromadi va ichki bozorni himoya qilishga xizmat qiladi" ¹⁸ .

Yuqoridagi yondashuvlar yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalarga muvofiq mualliflik yondashuvini vujudga keltirdi: "Bojxona to'lovlari deganda –

¹⁰ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

¹¹ Pardayev T.N. O'zbekistonda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dis. avt.–T.:2025.

¹² Aripov S. Tashqi savdoni bojxona to'lovlari orqali tartibga solishni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2009. -24 b.

¹³ Makkamov Z.X. Bojxona to'lovlari auditini takomillashtirish istiqbollari: i.f.f. (PhD) dis. avtoref. –T.:2022.

¹⁴ Sarmanov O.A. O'zbekistonda bojxona to'lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. –T.:2024.

¹⁵ Слепова Д.А., Чуйкова Е.В. Таможенные платежи, исчисляемые таможенными представителями как источник формирования доходов федерального бюджета Российской Федерации. Экономика и управление: новые вызовы и перспективы. 2016;(11):192–196.

¹⁶ Knodel L.V. Customs duties as an economic category. URL: https://er.knutd.edu.ua/bitstream/123456789/15008/1/20200302_303.pdf

¹⁷ Pepelasis A.A. Tariff // Encyclopaedia Britannica. URL: <https://www.britannica.com/money/tariff>. (murojaat sanasi: 20.03.2026)

¹⁸ Bragg, S. (n.d.). Customs duty definition. AccountingTools. <https://www.accountingtools.com/articles/customs-duty>

bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlardan bojxona xizmati organlari tomonidan undiriladigan, davlat budjetining daromadlarini shakllantiradigan majburiy to'lov hamda tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi tushuniladi".

Bojxona to'lovlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, budjet taqchilligini oldini olish uchun muhim unsurdur. Ular tashqi savdo aylanmasini belgilangan miqyosda nazorat qilish, iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash va fiskal vazifalarni amalga oshirish maqsadida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-250-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq "Bojxona to'lovlari va yig'imlarini undirish tartiblarini soddalashtirish" Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatida nazorat, tahlil va xavflarni baholash tizimlarining zamonaviy shakllaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish hamda tashqi savdoni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi¹⁹.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarif orqali tartibga solishda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda import bojxona bojining o'rtacha arifmetik stavkasini o'zgarishi 2003 va 2025-yillarda tahlil qiladigan bo'lsak, bu davrda 15,31% dan 8,02 % ga yoki 1,9 martaga kamaygan (2-jadval).

2-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarif orqali tartibga solishda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda import bojxona bojining o'rtacha arifmetik stavkasini o'zgarishi (foizda)²⁰

Normativ – huquqiy hujjat									
O'zR VMning 31.05.2002-y. 189-son qarori		O'zR VMning 07.01.2004-y. 4-son qarori	O'zR Prezidentining 19.09.2005-y. PQ-183-son qarori	O'zR Prezidentining 27.03.2008-y. PQ- 823-son qarori	O'zR Prezidentining 05.08.2009-y. PQ- 1169-son qarori	O'zR Prezidentining 29.09.2017-y. PQ- 3303-son qarori	O'zR Prezidentining 29.06.2018-y. PQ-3818-son qarori	O'zR Prezidentining 26.12.2018-y. PQ- 4086-son qarori	O'zR Prezidentining 02.10.2019-y. PQ-4470-son qarori
%	15,31	14,81	14,84	14,93	14,84	6,50	4,06	5,59	8,02

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.12.2025-yildagi "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-250-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/7934915>

²⁰ BQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Tashqi savdoni bojxona to'lovlarini orqali tartibga solish tizimini ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro prinsip va normalarni inobatga olgan holda izchil optimallashtirish, shuningdek, bojxona to'lovlari undirish mexanizmlarini takomillashtirib borish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasida uchinchi davlatlardan import qilinadigan tovarlarni tartibga solishda tarif kvotalari mexanizmi keng qo'llaniladi. Ushbu mexanizm, asosan, imtiyozli va avtonom (tarif) kvotalarga ajratiladi. Imtiyozli kvotalar Yevropa Ittifoqining uchinchi davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo bitimlari doirasida joriy etilib, ular orqali muayyan turdagi tovarlarni belgilangan hajmda pasaytirilgan bojxona tariflari asosida import qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, hamkor davlatlar uchun qulay savdo sharoitlarini shakllantirish va eksport salohiyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Avtonom (tarif) kvotalar esa Yevropa Ittifoqi tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi hamda asosan ichki bozor ehtiyojlarini qondirish va ayrim tarmoqlarda raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur kvotalar, odatda, Ittifoq hududida yetarli darajada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarga nisbatan tatbiq etiladi. Shu bilan birga, ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari orqali bozor talabi to'liq ta'minlangan hollarda, bunday kvotalarni bekor qilish amaliyoti ham mavjud. Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi tajribasi tarif kvotalarini qo'llash orqali tashqi savdoni samarali tartibga solish, ichki bozorni himoya qilish va iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan Yevropa Ittifoqi amaliyotini inobatga olgan holda, mamlakatimizda ayrim tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlaridan to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlar berish amaliyotini bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, ushbu imtiyozlar o'rniga ichki bozor talabidan kelib chiqqan holda eng past bojxona bo'ji stavkalari qo'llaniladigan tarif kvotalarini joriy etish taklif etiladi.

Mazkur yondashuv ichki bozor ehtiyojlarini samarali qondirish, raqobat muhitini rivojlantirish va import tartib-taomillarini shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarif kvotalarini joriy etishda aniq mezonlar asosida qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kvotalarni taqdim etishda ular tatbiq etiladigan davlatlarni belgilash, amal qilish muddatini aniqlash, tovar turini TIF TN kodlari bo'yicha aniq identifikatsiya qilish, shuningdek, ularning miqdoriy yoki qiymat ko'rsatkichlarini belgilashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eng ko'p qulaylik berish rejimi (EKQ) qo'llanilmagan holatlarda bojxona bojlari stavkalarini belgilashda turli yondashuvlar mavjud. Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar - Rossiya va Qozog'iston amaliyotida EKQ mavjud bo'lmaganda yoki tovar kelib chiqishi aniqlanmaganda bojxona bojlari stavkalari ikki baravar miqdorda qo'llanilishi kuzatiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham shunga o'xshash tartib amal qilib, EKQ qo'llanilmagan yoki tovarning kelib chiqish mamlakati aniqlanmagan hollarda oshirilgan stavkalar tatbiq etiladi.

Boshqa rivojlangan davlatlar tajribasida esa ikki baravar oshirish amaliyoti keng qo'llanilmaydi, aksincha oldindan belgilangan yuqori tarif stavkalari tizimi joriy etilgan. Jumladan, AQShda "Column 2" tariflari, Yaponiya va Xitoyda umumiy (non-MFN) stavkalar, Turkiya hamda Italiya (Yevropa Ittifoqi doirasida)da umumiy tashqi tariflar, shuningdek Buyuk Britaniyada "UK Global Tariff" qo'llaniladi. Singapurda esa erkin savdo siyosati ustuvor bo'lib, aksariyat tovarlar uchun nol stavkalar saqlanib qolmoqda. Mazkur yondashuvlar bojxona tarif siyosatini differensial tartibga solish orqali tashqi savdoni muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan xorijiy davlatlar tajribalarini inobatga olgan holda, savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan boj tarifidan tashqari besh, o'n, o'n besh va yigirma foiz miqdorlarda qo'shimcha bojxona boji undirish maqsadga muvofiq.

Ya'ni, bojxona kodeksining 43-bobi quyidagi mazmundagi 300¹-modda bilan to'ldirish, unga asosan savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan boj tarifidan tashqari quyidagi miqdorlarda qo'shimcha bojxona boji undirilishi belgilash taklif etiladi:

bojxona bojining advalor stavkasi turi o'n foizgacha bo'lgan tovarlarga nisbatan - besh foiz;

bojxona bojining advalor stavkasi o'n foizdan yigirma foizgacha bo'lgan tovarlarga nisbatan - o'n foiz;

bojxona bojining advalor stavkasi yigirma foizdan o'ttiz foizgacha bo'lgan tovarlarga nisbatan - o'n besh foiz;

bojxona bojining advalor stavkasi o'ttiz foiz va undan yuqori bo'lgan tovarlarga nisbatan -yigirma foiz.


Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, dissertatsiya ishining ushbu bobida davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning obyektiv zarurati, bojxona to'lovlari undirishning normativ-huquqiy asoslari, davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishning xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari bo'yicha muallifning qarashlari hamda fikrlari bayon etilgan. Xususan, "bojxona to'lovlari" tushunchasiga mualliflik tarifi ishlab chiqilgan hamda uning iqtisodiy mohiyati va bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi takomillashtirish yuzasidan xulosalar hamda takliflar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Bojxona to'lovlari undirishning amaldagi holati, muammolar tahlili va ularni bartaraf etish yo'llari**" deb nomlanib, unda bojxona to'lovlari undirishning amaldagi holati va undagi muammolar tahlili, bojxona to'lovlari yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'llari, bojxona to'lovlarini undirish va davlat budjetiga o'tkazishni avtomatlashtirishning amaldagi holati va uni takomillashtirish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Jahonda rivojlangan davlatlar o'z iqtisodiyotini har tomonlama barqaror rivojlanishini, bugungi integratsiyalashuv jarayonlarini hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish uchun maxsus vositalardan foydalanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat vositalaridan bojxona to'lovlari muhim rol o'ynaydi.

Bojxona to'lovlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, budget taqchilligini oldini olish uchun muhim unsurdur. Ular tashqi savdo aylanmasini belgilangan miqyosda nazorat qilish, iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash va fiskal vazifalarni amalga oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Bojxona organlari faoliyatida fiskal funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha zamonaviy va samarali mexanizmlar joriy etilgani natijasida bojxona to'lovlarini undirish hajmi izchil oshib bormoqda hamda bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish tizimi institutsional jihatdan takomillashtirilmoqda. Xususan, 2025-yil yakunlariga ko'ra bojxona organlari tomonidan jami 136,0 trln so'm (100 foiz) bojxona to'lovlari hisoblangan (3-rasm).



3-rasm. Bojxona organlari tomonidan 2021-2025-yillarda hisoblangan, undirilgan va imtiyoz berilgan bojxona to'lovlari (trln so'mda)²¹

Bojxona organlari tomonidan 2021-2025-yillar davomida davlat budgetiga yo'naltirilgan bojxona to'lovlari tarkibidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda budget daromadlariga o'tkazilgan jami bojxona to'lovlarida qo'shilgan qiymat solig'i asosiy daromad manbai sifatida shakllanib, uning ulushi 76,5 foizni tashkil etgan, import bojxona boji 15,4 foiz, aksiz solig'i 2,4 foiz, bojxona yig'implari hamda boshqa to'lovlar esa 5,7 foiz darajasida bo'lgan. Qiyosiy jihatdan olinganda, 2021-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 82,1 foiz, 14,3 foiz, 0,9 foiz va 2,6 foizga teng bo'lib, tahlil qilinayotgan davr mobaynida jami bojxona to'lovlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi 5,6 foizga kamaygan, import bojining ulushi 0,9 foiz, aksiz solig'ining ulushi 1,5 foiz hamda bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar ulushi 3,1 foizga oshgan (3-jadval).

²¹ Muallif tomonidan BQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

**Bojxona organlari tomonidan 2021-2025-yillar Davlat budjetiga o'tkazilgan
bojxona to'lovlari tarkibining o'zgarishi, foizda²²**

Bojxona to'lovlari turlari	2021	2022	2023	2024	2025
Qo'shilgan qiymat solig'i	82,1	84,1	80,0	77,7	76,5
Import bojxona boji	14,3	12,5	16,0	15,9	15,2
Eksport bojxona boji					0,2
Aksiz solig'i	0,9	0,7	0,1	2,1	2,4
Bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar	2,6	2,7	3,9	4,3	5,7
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Bojxona to'lovlari hajmining o'sishiga bir qator tizimli va o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, jumladan import tovarlari hajmining ortishi, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash mexanizmlarining takomillashib borishi, bojxona to'lovlari stavkalarining o'zgarishi, erkin almashtiriladigan valyuta kurslaridagi tebranishlar, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan samarali foydalanishning kengayishi hamda bojxona faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning izchil ravishda takomillashtirilishi asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Odatda bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligiga ta'sir qiluvchi omillar shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi. Jumladan, bojxona organlariga bog'liq bo'lmagan - ekzogen omillar hamda bog'liq bo'lgan - endogen omillar.

Ekzogen omillar bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligiga eng ko'p ta'sir qiladi. Endogen omillar bojxona organlari tomonidan boshqariladigan omillar bo'lib, to'lovlarni undirishning to'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bojxona to'lovlari yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi omillarning eng asosiylaridan biri bu import hajmining oshishi hisoblanadi. Import tarkibi o'z navbatida, soliqqa (bojxona to'lovlariga) tortiladigan import va soliqqa (bojxona to'lovlariga) tortilmaydigan importga bo'linadi. Bojxona amaliyotida ularning importdagi ulushi bojxona to'lovlari miqdoriga juda yuqori darajada ta'sir etadi.

Tadqiqotlar davomida bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tasniflanib, chuqur tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida aniqlanishicha, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari boshqa omillarda sezilarli o'sish kuzatilmagan holatlarda ham bojxona to'lovlari yig'iluvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'tkazilgan kompleks tahlillar asosida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining yuzaga kelish sabablari beshta asosiy yo'nalish bo'yicha tizimlashtirildi (4-jadval).

²² Muallif tomonidan BQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bojxona organlarida 2021-2025-yillarda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini kelib chiqish sabablari, foizda²³

Kelib chiqish sabablari (yo‘nalishlari)	2021	2022	2023	2024	2025
Bojxona qiymati noto‘g‘ri belgilanishi	25,3	43,9	40,6	25,1	23,7
Imtiyozlarni noto‘g‘ri qo‘llanilishi	45,1	37,4	33,7	30,1	8,1
TIF TN kodi noto‘g‘ri belgilanishi	7,7	6,8	9,9	15,4	15,0
Tovar kelib chiqish sertifikatini bo‘yicha	15,8	4,4	4,9	3,4	1,5
Boshqa holatlarda	6,1	7,5	10,9	25,2	51,6
Jami:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

O‘tkazilgan tahlillar natijalari shuni yaqqol ko‘rsatadiki, qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining yuzaga kelishida asosiy omillar sifatida import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini noto‘g‘ri belgilash (24-44 foiz) hamda bojxona imtiyozlarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi (8-45 foiz) ustunlik qilmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini aniqlashda bojxona organlari tomonidan dastlabki qarorni berish tavsiya qilinadi. Natijada, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishdan oldin bojxona imtiyozlari bo‘yicha aniq va rasmiy ma’lumot olish imkoniyati yaratiladi. Bu orqali turli noaniqliklarni kamaytirish, ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldini olish hamda bojxona organlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni kamaytirishga erishiladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bojxona tizimini tubdan isloh qilish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 25-martda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatga muvofiq, Bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish hamda sohaga startup loyihalar va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo‘lib, unda raqamli iqtisodiyot doirasida zamonaviy va ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish orqali bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan²⁴.

Bojxona tizimida bojxona to‘lovlarini hisoblash va undirish jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida “Bojxona to‘lovlari” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilmoqda. Ushbu dastur bir qator muhim qulayliklarga

²³ Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-57-son Farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/7451997#7452876>

ega. Jumladan, barcha turdagi bojxona to'lovlarini elektron shaklda hisobga olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, pul mablag'lari harakati, to'lovlarni hisoblash va undirish jarayonlari o'z vaqtida hamda aniq elektron hujjatlashtiriladi. Shuningdek, davlat budjeti va Davlat bojxona qo'mitasining maxsus fondiga tushadigan bojxona bojlari, soliqlar va yig'implarning tushumi real vaqt rejimida monitoring qilinadi.

Shu bilan birga, axborotlarni real vaqt rejimida saqlash, qayta ishlash va uzatish, web-texnologiyalar orqali masofadan ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniyati yaratilgan. Mazkur tizim "Elektron bojxona rasmiylashtiruv" axborot tizimi bilan integratsiyalashgan holda ishlab, o'zaro ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.

Amalga oshirilayotgan raqamlashtirish ishlariga qaramasdan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan BYUDlarni rasmiylashtirish jarayonlari markazlashtirilgan tartibda amalga oshirilsa-da, rasmiylashtiruv uchun mablag'lar har bir hududiy boshqarma uchun alohida to'lanishi amaliyoti saqlanib qolgan. Masalan, Xorazm viloyatida faoliyat yurituvchi tashkilot o'zining savdo yuklarini ushbu hududdagi bojxona organi orqali respublikaga olib kirsam, faqatgina mablag'larni Xorazm viloyati bojxona boshqarmasi shaxsiy g'azna hisob raqamiga to'lashi lozim. Mazkur yo'nalishda Singapur va Janubiy Koreya kabi rivojlangan xorijiy davlat tajribasini ko'rib chiqamiz.

Singapur tajribasida bojxona to'lovlari yagona elektron platforma - "Singapore Customs" tizimi orqali amalga oshiriladi. Barcha tashqi savdo operatsiyalari "yagona darcha" tamoyili asosida ishlaydi. To'lovlar bank tizimi va onlayn to'lov xizmatlari orqali masofadan turib amalga oshiriladi. Bu tizim orqali tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari muayyan hududiy bojxona idoralariga bog'lanmagan holda, mamlakatning istalgan nuqtasidan to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega²⁵.

Janubiy Koreyada bojxona to'lovlari Koreya bojxona xizmati tomonidan boshqariladi hamda "UNI-PASS" elektron bojxona axborot tizimi orqali masofadan turib markazlashtirilgan tartibda qabul qilinadi²⁶.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlari va bojxona rasmiylashtiruv uchun boshqa turdagi to'lovlarni respublikaning istalgan hududidan amalga oshirish imkoniyati yaratish maqsadida yagona g'azna hisobvarag'ini ochish taklif etiladi. Natijada, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay, shaffof va tezkor to'lov muhitini yaratish bilan birga, davlat budjeti daromadlarini samarali boshqarish va nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish hamda davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlashga imkoniyat yaratiladi.

Shunday qilib, dissertatsiya ishining mazkur bobida bojxona to'lovlari undirishning amaldagi holati va undagi muammolar tahlili, bojxona to'lovlari yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'llari, bojxona to'lovlarini undirish va davlat budjetiga o'tkazishni avtomatlashtirishning amaldagi holati va uni takomillashtirish keng yoritilgan. Xususan, bojxona to'lovlarini undirish va davlat budjetiga o'tkazish jarayonida zamonaviy IT dasturlari

²⁵ Internet manbasi. <https://www.customs.gov.sg/transaction/payments>

²⁶ Internet manbasi. <https://unipass.customs.go.kr/csp/index.do>

va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish yuzasidan xulosalar hamda takliflar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish yo'llari”** deb nomlanib, unda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmida Xalqaro standartlarni implementatsiya qilish imkoniyatlari, bojxona to'lovlari va unga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili, davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish yo'nalishlari bayon qilingan.

Har bir davlat bojxona to'lovlarini qo'llashda o'ziga xos yondashuv va mexanizmlarga ega bo'lib, ular o'zaro farqlanadi. Shu bois, hozirgi sharoitda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, bojxona to'lovlarini qo'llash sohasida umumiy qoidalar va xalqaro standartlar ham shakllantirilgan. Xususan, Bojxona tartib-taomillarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi Kioto konvensiyasi bojxona tartib-taomillarini tartibga soluvchi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Mazkur konvensiyaning bosh ilovasida “bojxona to'lovlari” bojxona hududiga tovarlarning olib kirilishi yoki olib chiqilishi munosabati bilan undiriladigan bojlar sifatida, “bojlar va soliqlar” esa import hamda eksport boj va soliqlarining yig'indisi sifatida belgilab berilgan.

Bundan tashqari, Bojxona tartib-taomillarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi Kioto konvensiyasining 4.16-standartida bojlar va soliqlar to'lovini kechiktirish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda, imkon qadar foizlar undirilmasligi belgilangan. Shuningdek, 4.17-standartga muvofiq, bojlar va soliqlarni to'lashni kechiktirish muddati kamida 14 kunni tashkil etishi lozimligi nazarda tutilgan.

Bojxona kodeksiga asosan bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlash usullari pul mablag'lari, garov, bank kafolati, sug'urta hamda kafillik kabi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu mexanizmlar bojxona organlari uchun moliyaviy xavflarni kamaytirish bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun majburiyatlarni bajarish kafolatini ta'minlaydi.

Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan bosh ta'minot (general guarantee) tizimi bojxona jarayonlarini soddalashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va tashqi savdo operatsiyalarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Turkiya, Singapur hamda Xitoy tajribasida bojxona to'lovlarini ta'minlashda bank kafolati, sug'urta polisi yoki reyting tizimlari asosida bosh ta'minot mexanizmlarini qo'llash amaliyoti keng joriy etilgan.

Mazkur xalqaro normalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular bojxona to'lovlarini undirish jarayonida qulayliklar yaratish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Biroq, qayd etilgan qoidalar milliy qonunchiligimizda to'liq aks etmagan bo'lib, ushbu yo'nalishda tegishli huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarurati mavjud.

Xalqaro standart talablari va xorijiy davlatlar tajribasi asosida bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash tartibini ishlab chiqish, unda bosh ta'minotni qabul qilishni rad etish holatlarini va vakolatli shaxslarning haraktlar ketma-ketligi va muddatlarini aniq belgilab ko'rsatish taklif etiladi.

Davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlarini o'rganishda ekonometrik usullardan foydalanish moliyaviy-iqtisodiy tahlil sifatini oshirishga va bojxona-tarif siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur dissertasiya ishida bojxona to'lovlari hajmining asosiy makroiqtisodiy va tashqi savdo ko'rsatkichlariga bog'liqligini aks ettiruvchi ekonometrik modelni tuzish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu ta'sirlarni o'rganish uchun ko'p omilli ekonometrik model tuzish, uni turil mezonlar va testlar asosida tahlil qilish va kelgusi davrlarga prognoz qilish masalalari maqsad qilib olingan. Ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashadigan natijaviy omil bo'lib, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari, mlrd. so'm (Y) hisoblanadi. Ushbu omilga ta'sir etuvchi omillar bo'lib esa – import hajmi, mln. AQSh doll. (X_1), soliqqa tortiladigan import hajmi, mln. AQSh doll. (X_2), bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar, mlrd. so'm (X_3), importyorlar soni, birlik (X_4), import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi, foiz (X_5) hamda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, foiz (X_6) hisoblanadi.

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga kiruvchi omillarni tanlashda omillar o'rtasida bog'lanish zichliklarini aniqlash muhim hisoblanadi. Buning uchun natijaviy va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida korrelyasiya tahlili o'tkaziladi. Ushbu hisob-kitoblar jarayonida omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyasiya koeffisientlari hisoblanadi. Omillar o'rtasida hisoblangan xususiy va juft korrelyasiya koeffisientlari matrisasi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Omillar o'rtasida hisoblangan korrelyatsion matritsa²⁷

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 01/25/26 Time: 01:18; Sample: 2010 2024; Included observations: 15; Correlation t-Statistic

Probability	Y	X1	X2	X3	X4	X5	
Y	1.000000						
X1	0.683552	1.000000					
	3.376593	-----					
	0.0050	-----					
X2	0.901229	0.647311	1.000000				
	7.498529	4.208105	-----				
	0.0000	0.0009	-----				
X3	0.687492	0.671378	0.586234	1.000000			
	3.413377	3.389576	2.316410	-----			
	0.0045	0.0044	0.0648	-----			
X4	0.739111	0.674726	0.679725	0.575423	1.000000		
	3.906498	3.420543	3.49726	2.563731	-----		
	0.0016	0.0041	0.0036	0.0675	-----		
X5	-0.731329	-0.229521	-0.580378	-0.656877	-0.529588	1.000000	
	-3.866200	-0.882346	-2.269552	-3.219226	-2.059037	-----	
	0.0019	0.3925	0.0644	0.0341	0.0691	-----	
X6	-0.761997	-0.376512	-0.630187	0.112502	0.042432	0.492994	1.000000
	-4.242596	-1.465366	-2.926380	0.408223	0.153128	2.043042	-----
	0.0010	0.1666	0.0118	0.6898	0.8806	0.0619	-----

²⁷ Muallif ishlanmasi.

Omillar aniqlab olingandan so'ng chiziqli ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Umumiy holda chiziqli ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda y – natijaviy omil, x_i - ta'sir etuvchi omillar, ε - tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma'lum $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ parametrlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli” dan foydalanamiz.

Ko'p omilli ekonometrik modelning parametrlarini aniqlash uchun ekonometrik modellash dasturi – Eviews dasturidan foydalanamiz. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) asosida hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha natijalar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari²⁸

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares; Date: 01/25/26 Time: 01:22; Sample: 2010 2024; Included observations: 15

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.277940	0.179626	1.547321	0.0604**
X2	1.554542	0.206265	7.536632	0.0001***
X3	0.262212	0.037845	6.928545	0.0001***
X4	0.381343	0.101192	3.768497	0.0055***
X5	-256.1126	66.06295	-3.876797	0.0047***
X6	-369.6153	73.11100	-5.055537	0.0010***
C	11442.34	1517.058	7.542455	0.0001***
R-squared	0.920382	Mean dependent var		4940.895
Adjusted R-squared	0.913168	S.D. dependent var		4854.606
S.E. of regression	629.8218	Akaike info criterion		16.03348
Sum squared resid	3173404.	Schwarz criterion		16.36390
Log likelihood	-113.2511	Hannan-Quinn criter.		16.02996
F-statistic	137.2942	Durbin-Watson stat		2.250518
Prob(F-statistic)	0.000000			

Izoh: *** - 0,05 foiz aniqlikda, ** - 0,10 foiz aniqlikda

Yuqoridagi 6-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) hamda unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 11442,3 + 0,278X_1 + 1,554X_2 + 0,262X_3 + 0,381X_4 - 256,1X_5 - 369,6X_6, \quad (2)$$

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari bo'yicha ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (2) shuni ko'rsatadiki, import hajmi (X_1) o'rtacha bir mln. AQSh dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,278 mlrd. so'mga ortar ekan. Soliqqa tortiladigan import hajmi (X_2) o'rtacha bir mln. AQSh dollariga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 1,554 mlrd. so'mga ortar ekan. Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar (X_3) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,262 mlrd. so'mga ortar ekan. Importyorlar soni (X_4) o'rtacha bir birlikka ortsa, davlat budjetiga undirilgan

²⁸ Muallif ishlanmasi.

bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 0,381 mlrd. so'mga ortishi mumkin ekan. Import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi (X_5) o'rtacha bir foizga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 256,1 mlrd. so'mga kamayar ekan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (X_6) o'rtacha bir foizga ortsa, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari (Y) o'rtacha 369,6 mlrd. so'mga kamayar ekan.

Shunday qilib, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) bir qator mezonlar yordamida tekshirildi va undan kelgusi davrlarda omillarni prognozlashda foydalanish mumkinligi aniqlandi. Shuning uchun ham (2) ko'p omilli ekonometrik model yordamida davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

Buning uchun avvalo har bir ta'sir etuvchi omil bo'yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

Import hajmi (X_1) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_1 = 25913924 + 2030165 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,8353, F_{\text{хисоб}} = 70,9884, t_{\text{хисоб}} = 8,4255.$$

Soliqqa tortiladigan import hajmi (X_2) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_2 = -3928,09 + 1845,395 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,7354, F_{\text{хисоб}} = 38,9012, t_{\text{хисоб}} = 6,2371.$$

Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar (X_3) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_3 = -434,723 + 4063,893 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,7354, F_{\text{хисоб}} = 38,9012, t_{\text{хисоб}} = 6,2371.$$

Importyorlar soni (X_4) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_4 = 2935,175 + 1947,928 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,8982, F_{\text{хисоб}} = 123,5816, t_{\text{хисоб}} = 11,1167.$$

Import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi (X_5) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_5 = 16,0525 - 0,36574 \cdot t \quad (8)$$

$$R^2 = 0,7975, F_{\text{хисоб}} = 20,7847, t_{\text{хисоб}} = -4,5590.$$

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (X_6) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_6 = 22,74375 - 0,6187 \cdot t \quad (9)$$

$$R^2 = 0,7780, F_{\text{хисоб}} = 49,0689, t_{\text{хисоб}} = -7,0049.$$

Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki (4) – (9) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffisientlari statistik ahamiyatligi, parametrlarining ishonchligi aniqlandi.

Demak, (4) – (9) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo ta'sir etuvchi omillarning prognoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omilni prognoz qilamiz. Prognoz qilingan qiymatlarni logarifmdan ozod etish uchun ularni potensirlaymiz. Natijada davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (7-jadval).

7-jadval

Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillarning 2010-2025-yillardagi dinamikasi va 2026-2030-yillarga prognoz qiymatlari ²⁹

Yillar	Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari, mlrd. so'm, Y	Import hajmi, mln. AQSh doll., X1	Soliqqa tortiladigan import hajmi, mln. AQSh doll., X2	Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar, mlrd. so'm, X3	Importyorlar soni, birlik, X4	Import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi, foiz, X5	Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, foiz, X6
2010	2084,50	8685,42	3810,09	7090,90	8838	14,80	20,00
2011	2557,10	10765,03	4652,19	9863,88	9124	14,70	20,00
2012	3697,22	12322,56	5393,78	12636,86	9894	14,80	20,00
2013	4547,68	12997,29	5059,60	15374,52	10858	14,80	20,00
2014	5715,51	12864,16	5767,29	16330,16	12103	14,70	20,00
2015	5945,22	11462,54	4984,37	14421,19	9758	14,80	20,00
2016	5627,86	11328,41	4739,61	16930,41	11001	14,70	20,00
2017	7588,54	12035,21	4262,15	28642,10	13492	6,50	20,00
2018	11487,20	17301,06	4307,41	48769,23	20004	4,10	20,00
2019	17128,09	21824,81	7135,12	59585,25	28300	5,60	18,75
2020	24723,19	19919,94	11649,14	40762,51	23489	8,00	15,00
2021	33226,82	23740,37	16445,91	38512,41	27194	7,90	15,00
2022	46024,57	28162,41	20012,35	58628,08	28480	8,00	15,00
2023	58388,03	36781,74	27561,12	61618,29	32719	8,00	12,00
2024	63034,50	35289,76	28192,04	56815,79	33003	7,90	12,00
2025	76197,92	42083,93	34152,03	59752,27	33624	7,00	12,00
2026*	87980,34	37104,20	27443,63	68651,46	36050	6,73	12,23
2027*	94146,08	39134,36	29289,02	72715,35	37998	6,22	11,61
2028*	100311,82	41164,53	31134,42	76779,24	39946	5,78	10,99
2029*	106477,57	43194,69	32979,81	80843,14	41894	5,23	10,37
2030*	112643,31	45224,86	34825,21	84907,03	43842	4,83	9,75

* - prognoz davri


Shuni inobatga olib, bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi import hajmi, soliqqa tortiladigan import hajmi, bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar, importyorlar soni, import bojxona bojining o'rtacha arifmetik stavkasi, qo'shilgan

²⁹ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

qiymat solig'i kabi omillar asosida davlat budjetiga bojxona to'lovlari tushumining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan bojxona organlari tomonidan undiriladigan bojxona to'lovlarining istiqbol rejasini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etiladi.

Buning natijasida, davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari summasi 2025-yilga nisbatan 2030-yilda 1,5 marta oshishi kutilmoqda (4-rasm).

Fikrimizcha, 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish bojxona organlari tomonidan undiriladigan bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligini oshiradi va bu orqali davlat budjeti taqchilligini qisqartirishga erishiladi.



4-rasm. Davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining 2010-2025-yillardagi dinamikasi va 2026-2030-yillardagi prognoz qiymatlari, mlrd. so'm³⁰

Hozirgi sharoitda bojxona to'lovlari mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular tashqi savdo aylanmasini oqilona tartibga solish, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish hamda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda samarali instrument vazifasini bajaradi.

Tashqi savdo tarkibini samarali boshqarish va ichki ishlab chiqaruvchilarni xalqaro raqobatdan himoya qilish maqsadida, amaldagi import boji stavkalari o'rniga Jahon savdo tashkiloti (JST) a'zolari tomonidan qo'llanilayotgan ko'p ustunli bojxona boji stavkasini joriy etish tavsiya qilinadi. Mazkur tizimni joriy etish natijasida tashqi savdo tarkibini yanada moslashuvchan va samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi, import oqimlari ustidan differensial nazorat kuchayadi hamda ichki ishlab chiqaruvchilarni xalqaro raqobatning salbiy ta'siridan himoya qilish mexanizmlari takomillashtiriladi. Shu bilan birga, bojxona tarif siyosati xalqaro amaliyotga yaqinlashib, savdo rejimining shaffofligi va prognoz qilinuvchanligi oshadi, bu esa investitsion jozibadorlik va eksport-import operatsiyalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

³⁰ Muallif ishlanmasi.

Xulosa qilib aytganda, dissertatsiya ishining ushbu bobida Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmida Xalqaro standartlarni implementatsiya qilish imkoniyatlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, Bojxona to'lovlari va unga ta'sir qiluvchi omillar ekonometrik tadqiq etilgan va prognoz ko'rsatkichlari shakllantirilgan hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

XULOSA

Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to'lovlarini undirishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi muhim xulosalar hamda takliflar shakllantirildi:

1. Fikrimizcha, "Bojxona to'lovlari deganda – bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlardan bojxona xizmati organlari tomonidan undiriladigan, davlat budjetining daromadlarini shakllantiradigan majburiy to'lov hamda tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi tushuniladi", deb ta'rif berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan boj tarifidan tashqari 5-20 foiz chegarasida tabaqalashtirilgan miqdorlarda qo'shimcha bojxona bojini undirish maqsadga muvofiq. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fiskal yuklamani oshirish emas, balki shaffof, prognoz qilinadigan va adolatli tashqi iqtisodiy tartibga solish tizimini yaratishga erishiladi.

3. Tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlari va bojxona rasmiylashtiruvi uchun boshqa turdagi to'lovlarni yagona g'azna hisobvarag'ini ochish orqali respublikaning istalgan hududidan amalga oshirish imkonini yaratish taklif etiladi. Natijada, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay, shaffof va tezkor to'lov muhitini yaratish bilan birga, davlat budjeti daromadlarini samarali boshqarish va nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish hamda davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlashga imkoniyat yaratiladi.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini aniqlashda bojxona organlari tomonidan dastlabki qarorni berish tavsiya qilinadi. Natijada, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishdan oldin bojxona imtiyozlari bo'yicha aniq va rasmiy ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi. Bu orqali turli noaniqliklarni kamaytirish, ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldini olish hamda bojxona organlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni kamaytirishga erishiladi.

5. O'zbekistonda davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ko'p omillik ekonometrik tahlillari natijasida ishlab chiqilgan bojxona to'lovlari tushumining 2030-yilga qadar o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlaridan Bojxona qo'mitasi tomonidan davlat budjetining tushumlari prognozini shakllantirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Natijada, bojxona to'lovlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish takomillashib, bojxona to'lovlari tushumi 2030-yilda 2025-yilga qaraganda 1,5 marta oshishiga erishiladi.

6. Bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillar turkumlarga ajratilgan va ular ekonometrik tahlil etilgan hamda bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri o'rganilib, bojxona to'lovlarining miqdorini oqilona oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar berilgan.

7. Import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasining o'zgarishi bojxona to'lovlari summasiga ta'sir qilishi, import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasining oshishi esa davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining kamayishiga olib kelishi, jumladan, import bojxona bojining o'rta arifmetik stavkasi o'rtacha bir foizga oshishi davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari o'rtacha 256,1 mlrd so'mga kamayishiga ta'sir qilishi asoslangan. Natijada 1,2 trln so'm mablag'lar davlat budjetiga ortig'i bilan o'tkazilishiga erishilgan.

8. Soliqqa tortiladigan import hajmining o'zgarishi bojxona to'lovlari summasiga ta'sir qilishi, soliqqa tortiladigan import hajmining oshishi esa davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlarining oshishiga olib kelishi, jumladan, soliqqa tortiladigan import hajmi o'rtacha bir mln AQSH dollariga oshishi davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari o'rtacha 1,554 mlrd so'mga oshishiga ta'sir qilishi asoslangan. Natijada, bojxona to'lovlari 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 2,1 trln so'mga oshish imkonini berdi.

9. Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasini inobatga olgan holda, mamlakatimizda ayrim tovarlarga bojxona to'lovlaridan to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlar berish amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'rniga ichki bozor talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, eng past bojxona boji stavkalari qo'llaniladigan tarif kvotalarini joriy etish taklif etiladi. Tarif kvotalarini belgilash jarayonida ularning amal qiladigan davlatlar doirasini aniqlash, muayyan davr uchun joriy etish, tovarlarni TIF TN kodlari asosida aniq identifikatsiya qilish, shuningdek ularning miqdoriy yoki qiymat ko'rsatkichlarini belgilashga alohida e'tibor qaratish zarur. Mazkur mexanizmni joriy etish natijasida ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash, raqobat muhitini rivojlantirish bilan birga, davlat budjetiga bojxona to'lovlari tushumlarini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

10. Xalqaro standart talablari va xorijiy davlatlar tajribasi asosida bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash tartibini ishlab chiqish, unda bosh ta'minotni qabul qilishni rad etish holatlarini va vakolatli shaxslarning haraktlar ketma-ketligi va muddatlarini aniq belgilab ko'rsatish taklif etiladi. Natijada bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash jarayoni aniq, shaffof va yagona standartlar asosida amalga oshiriladi, bosh ta'minotni qabul qilishni rad etish asoslari huquqiy jihatdan mustahkamlanadi hamda vakolatli shaxslarning harakatlari va muddatlari belgilab qo'yilishi orqali ortiqcha byurokratik to'siqlar kamayadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.23.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАМОЖЕННЫЙ ИНСТИТУТ ТАМОЖЕННОГО КОМИТЕТА

МУКИМОВ АСРОРЖОН РАСУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗИМАНИЯ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ
В ЦЕЛЯХ УВЕЛИЧЕНИЯ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО
БЮДЖЕТА**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № B2025.2.PhD/Iqt3103.

Диссертация выполнена в Таможенном институте Таможенного комитета.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательного портала «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Пардаев Тулкин Насирович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Турсунов Бобир Ортикмирзаевич
доктор экономических наук, профессор

Хужакулов Рамшид Юнусович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека


Защита диссертации состоится «3» 09 2026 года в 12.00 ч. на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.01 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г.Ташкент, ул.Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 2070). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239 43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «14» 08 2026 года.

(протокол реестра № 61 от «14» 08 2026 года.




С.У. Мехмонов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор


У.В. Гафуров
Учёный секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор


С.К. Худойкулов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике экономическая сущность таможенных платежей в повышении доходов государственного бюджета проявляется в ряде аспектов. Прежде всего, таможенные платежи являются одним из основных источников формирования доходной части государственного бюджета. Во-вторых, они выполняют защитную функцию, обеспечивая устойчивость отечественного производства в условиях конкуренции с иностранными товарами. Кроме того, таможенные платежи играют важную роль в регулировании внешнеторговых операций и обеспечении экономической безопасности государства. Для большинства стран, особенно развивающихся государств, таможенные платежи составляют значительную долю бюджетных доходов. В частности, доля таможенных платежей в структуре доходов государственного бюджета составляет 14–15 % в странах Европейского союза, 21–23 % в Российской Федерации и странах СНГ, а в Китае - около 3 %¹. Совершенствование таможенного администрирования способствует не только обеспечению полноты взимания таможенных платежей, но и стимулированию легальной торговли, снижению транзакционных издержек и минимизации коррупционных рисков. Наряду с этим сокращение ошибок при определении таможенной стоимости и классификации товаров, целевое использование таможенных льгот, а также своевременное выявление мошеннических схем позволяют ограничить бюджетные потери и повысить точность прогнозирования доходов бюджета. Опыт развитых государств свидетельствует о том, что совершенствование системы взимания таможенных платежей, широкое внедрение цифровых технологий в таможенную сферу, развитие системы управления рисками и сокращение влияния человеческого фактора являются одними из ключевых направлений повышения эффективности таможенного администрирования и обеспечения устойчивого роста бюджетных доходов.

В мире научные исследования по совершенствованию взимания таможенных платежей в целях увеличения доходов государственного бюджета последовательно ведутся с акцентом на модернизацию таможенного администрирования в условиях роста внешней торговли и цифровой логистики, обеспечение стабильности поступлений, а также снижение рисков теневого оборота и контрабанды. К числу приоритетных направлений исследований по данной проблеме можно отнести повышение эффективности полного взыскания платежей посредством риск-ориентированного таможенного контроля и постаудита, усиление точности и прозрачности при

¹ https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs/eu-customs-union-facts-and-figures/customs-duties-source-revenue_en; Russian budget revenues up 26% in 2024 to over \$400 bln — Accounts Chamber. https://tass.com/economy/1922521?utm_source=the_moscow_times, <https://www.themoscowtimes.com/2026/01/15/russias-customs-revenues-fall-20-in-2025-deepening-budget-shortfall-a91692>; China – Customs and Other Import Duties (% Of Tax Revenue) <https://tradingeconomics.com/china/customs-and-other-import-duties-percent-of-tax-revenue-wb-data.html>.

исчислении платежей за счет электронного декларирования, «единого окна», технологии распределенного реестра (блокчейн), обеспечивающей хранение данных в виде «цепочки», отслеживания происхождения и движения товара, а также аналитики Big Data, методологии определения таможенной стоимости, трансфертного ценообразования и сокращения ошибок при классификации товаров, оптимизацию тарифных и таможенных льгот и эконометрическую оценку их влияния на бюджетные поступления и торговые потоки, институциональные реформы по снижению коррупционных и фрод-рисков, оценку эффективности службы на основе KPI и совершенствование механизмов контроля посредством цифровых следов.

Задачи, определенные в Узбекистане по совершенствованию взимания таможенных платежей в целях увеличения доходов государственного бюджета, прежде всего направлены на полную цифровизацию таможенного администрирования, централизацию оборота сведений и разрешительных документов через систему «Единое окно», расширение механизмов риск-ориентированного контроля и постаудита, а также снижение субъективности при определении таможенной стоимости. В частности, в рамках реформ установлена цель: «при полной цифровизации таможенных услуг количество услуг, оказываемых через таможенную информационную систему «Единое окно», будет доведено до 40»², что служит повышению прозрачности при исчислении и взимании платежей. Кроме того, введение с 1 октября 2025 года требования об оформлении сертификатов, заключений и разрешительных документов по внешней торговле через систему «Единое окно» обеспечивает концентрацию в едином источнике сведений, необходимых для полного взыскания платежей³. На практике межведомственная интеграция усиливается посредством таких правил, как непринятие электронной декларации в случае невнесения уполномоченными органами сведений в систему «Единое окно»⁴. Из этого следует, что научные исследования, направленные на эмпирическую оценку влияния указанных мер на бюджетные поступления, расходы бизнеса и снижение рисков, а также на оптимизацию цифровых и организационных решений при взимании таможенных платежей, приобретают актуальное значение.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных указами Президента Республики Узбекистан от 25 марта 2025 года № УП-57 «О мерах по повышению эффективности деятельности органов государственной таможенной службы», от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в Год охраны окружающей среды

² Указ Президента Республики Узбекистан. О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования. 27 апреля 2022 года, № УП-122. — <https://lex.uz/acts/-5998615>

³ Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 марта 2025 года № ПП-122 «О дополнительных мерах по организации деятельности органов государственной таможенной службы и дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования» - <https://lex.uz/uz/docs/-7452043>

⁴ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дальнейшем совершенствовании порядка таможенного декларирования товаров» от 31 июля 2018 года № 605. - <https://lex.uz/acts/-3844549>

